Volume 2, Issue 2,2024

FRANSUZ VA O‘ZBEK ERTAKLARIDA NAQLLARNING ADEKVAT TARJIMA JIHATLARI

Matyakubov Oybek Quralbayevich
Urganch davlat universiteti akademik litseyi fransuz tili o‘qituvchisi,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda o‘zbek, fransuz ertaklarida naql hamda maqollarning lingvokulturologik, adekvat jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tasvirlash, ikki noqardosh tillaridagi naql hamda maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o‘xshash tomonlarini ko‘rib chiqish, ulardagi mentalitet, milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilinadi.
Kalit so‘zlar: Mentalitet, paremiologiya, lingvokulturologiya, o‘xshashlik, qiyoslash, obraz, milliy madaniyat, milliy tafakkur.

Bugungi kunda, naqllar hamda maqollar ustida qizg‘in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, naqllarning turli jihatlarini o‘rganish, paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Naqllarning qiyosiy jihatlarini o‘rganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlariga to‘xtalmay ilojimiz yo‘q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi naqllarning bir-biriga o‘xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo‘lmish xalqning o‘ziga yarasha madaniyati va o‘ziga xos mentalitetini ko‘rsatishga harakat qilamiz. Ushbu tezisda o‘zbek va fransuz ertaklarida naql hamda maqollarning lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tasvirlash, o‘zbek va fransuz tillaridagi maqol hamda naqllarning mavzu jihatidan bir-biriga o‘xshash tomonlarini ko‘rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishiga harakat qilamiz. Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e’tiqodini, umuman, xalqning o‘ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir.

Naqllarning lingvokulturologik sifatlariga to‘xtalgan holda olimlardan Nida naqllarni o‘rganishda bevosita tilni va o‘sha xalqning madaniyatini o‘rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud bo‘lgan leksema o‘sha xalqning turmush tarzidan, ya‘ni xalq tilidan kelib chiqqan bo‘lib, bu bevosita naqllarda ishtirok etadi va naqllar orqali xalqning madaniyati aks etadi.

Fransuzcha: « Ange à l’église et diable à la maison » maqolini o‘zbek tiliga tarjima qilsak, “Cherkovda farishta, uyda shaytondek” ma’nosini beradi. Bu o‘zbek tilida: « Ko‘cha -xandon, uy-zindon » maqoli orqali ifodalanadi. Agar naqllarning ma’no-mazmunini tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning fikricha, doimiy ko‘chada xushchaqchaq, mehribon bo‘ladigan shaxs har doim ham yaxshi inson bo‘lib qolavermaydi. Bu naql orqali, yaxshi va xushchaqchaq bo‘lib ko‘ringan shaxs, aslida hech qanday insoniy sifatlarga ega bo‘lmaganligi ifodalanyapti. Biz yana naql orqali cherkov-Xristian olamining muqaddas dargohi ekanligini, islom olamida esa masjid shu o‘rinda ekanligini anglashimiz mumkin. Agar o‘zbekcha variantini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u o‘zbek tilida quyidagicha: “Ko‘cha-xandon, uy-zindon” tarzida ifodalanadi. Unda ishlatilgan « farishta », « uy », « shayton » kabi so‘zlar o‘zbek tilida uchraydigan so‘zlardandir.

Naqllarning lingvokulturologik xususiyatlariga to‘xtalar ekanmiz, millatlarning o‘ziga xos milliy xarakteri va mentaliteti haqida so‘z ochmay ilojimiz yo‘q, albatta. Chunki xalqning o‘ziga xos madaniyati, tarixi va urf-odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqol hamda naqllari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o‘rinda turadi. Asosan, har ikki tildagi naqllarni tanqidiy tahlil qilish orqali ko‘proq farqli tomonlarini o‘rganib, o‘zaro o‘xshash tomonlarining umumiy jihatlarini ifodalashga harakat qilamiz. Maqol va naqllar xalq ijodiyotining bebaho

namunasi bo‘lib, o‘sha xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi.

Mashhur tilshunos Dal aytganidek, « Naqllar to‘plami - bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog‘lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati ». Turli tillarning naqllariga to‘xtalar ekanmiz, ular o‘sha til egasi bo‘lmish xalqning tarixiy, ma’naviy va moddiy madaniyati ko‘zgusi ekaniga guvoh bo‘lamiz. Shu sababli, turli til naqllarini qiyosiy o‘rganish millatning o‘ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o‘sha xalqning mentalitetini ko‘rsatadi. « Mentalitet » tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko‘p bo‘lmagan bo‘lsada, hozirda juda keng doirada qo‘llanilmoqda. Tor ma’noda mentalitet « fikrlash doirasi, dunyoqarashi » mazmunida foydalanilsa, keng ma’noda esa « xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi ».

Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet - bu « xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma’naviy jabhalarida ham o‘z aksini topgan xarakteridir ». Shunday ekan, yuqorida aytib o‘tilganidek, bu « milliy xarakter » xalqning dini, siyosati, urf -odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o‘rni bilan ham chambarchas bog‘liq. Fransuz naqllaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, fransuz xalqining xarakteri haqida so‘z yuritib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir. Dunyo millatlari orasida ushbu xalq vakillari sermulozamatligi va hurmattalabligi bilan ajralib turadi. Bu jihat fransuz maqol va naqllarida ham o‘z aksini topadi: fransuzcha: Il ne faut pas jamais dire : Fontaine, je ne boirai pas de ton eau. O‘zbekcha tarjimasi: Hech qachon, favvora, men sening suvingdan ichmayman dema. Naqlda hech qachon kimnidir kamsitmaslik, insonlarga nisbatan doimo xushmuomala bo‘lish, har qanday qiyin vaziyatda ham insoniylik chegarasidan chiqmaslik haqida aytiladi. Ya’ni naqldan har ikki millatda ham sermulozamatlik, ochiqko‘ngillik kabi insoniy sifatlar borligini, xushmuomala, kamtarin bo‘lish esa xuddi biz singari fransuzlar mentalitetiga xos bo‘lgan tushunchalar ekanligini anglashimiz mumkin. Shuningdek, fransuzlarga xos yana bir jihat - bu ularning bolalarga nisbatan uy hayvonlariga bo‘lgan mehri ustunroq turishini naqllarda « bola » obrazidan ko‘ra « mushuk », ayniqsa, « it » obrazlari ko‘proq qo‘llanilishida kuzatamiz. Masalan:
Tout chien est lion dans sa maison - Barcha it o‘z uyida o‘zini sher sanar.
Jamais bon chien n’aboie a faux – Aqlli, yaxshi it, bekorga hurmas.
Le chien qui aboie ne mord pas - Hurgan it qopmaydi.
Ammo ayrim o‘zbek naqllarida « it » va « mushuk » obrazlari ko‘proq salbiy ma’noda, salbiy obrazda ishlatiladi. Masalan:
It hurar, karvon o‘tar - Les chiens aboient la caravane passe.
Oq it, qora it, bari bir it - Autant vaut être mordu d’un chien que d’une chienne.
Ushbu naqllarda « it » obrazi ko‘proq jahldor, yomon, poraxo‘r, ochko‘z, dimog‘dor odamlarga qaratilgan holda gavdalanadi.

Biroq farzandlar, bolalar haqidagi naql hamda maqollar o‘zbek xalqining eng sevimli mavzularidan biridir. Chunki o‘zbeklar bolajon xalq bo‘lib, ona va bolaga bo‘lgan e’tibor ahamiyatga molik:
Ona bilan bola - gul bilan lola.
Bolali uy - bozor, bolasiz uy - mozor.
Bolamning bolasi - qandin o‘rik donasi.

Ona va bola haqidagi naql hamda maqollardan nafaqat kundalik turmushda, balki yozuvchilarning asarlarida, xalq ertaklarida ham keltirishimiz mumkin. Misol sifatida mashhur o‘zbek yozuvchisi Tog‘ay Murodning « Otamdan qolgan dalalar » asaridagi ona va bola mavzusiga oid naqlning asarda ishlatilish o‘rnini ko‘rib chiqamiz: « -Qarg‘ish urgan odamni peshonasi ana shunday bo‘ladi. -Enani qarg‘ishi bolaga urmaydi. Ena, enani qarg‘ishi bolaga urmaydi. Og‘zingizni to‘ldirib qarg‘ay bering - baribir qarg‘ishingiz menga o‘tmaydi! Onamiz tovuqlar ko‘z

ko‘rinib donlasin uchun - so‘ri girdilatib don sochdi. -Seni men emas-seni Xudo qarg‘agan. -Xudo qarg‘agan? Eb-e, men xudoga nima yomonlik qildim-e? Xudo nima deb qarg‘agan-e? -Xudo, iloyim, shu o‘zbak degichni topgani aziz mehmoniga buyursin, deb qarg‘agan. » Parchada keltirilgan naql « Enani qarg‘ishi bolaga urmaydi » shuni anglatadiki, farzand ona uchun qancha azob-uqubat keltirsa ham, ona hech qachon farzandini qarg‘amaydi, qarg‘asa ham u chin ko‘ngildan bo‘lmaydi. Bundan tashqari o‘zbek xalqini qay daraja mehmondo‘st ekani, u tabiatan shunday yaralgani parcha oxiridagi jumlada keltirilgan. Shuning uchun ham o‘zbek xalq maqol hamda naqllaridagi mentalitet tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, xalqimiz qonidagi mehmondo‘stlik to‘g‘risida eslamay ilojimiz yo‘q. Naqllarimizda mehmonga bo‘lgan hurmat, bag‘rikenglik yaqqol ko‘rinib turadi. Misol uchun:

Mehmon - atoyi xudo.

Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan.

Yaxshilik, ezgulik kabi mavzular ham ko‘proq o‘zbek naqllarida uchraydi desak yanglishmaymiz. Chunki asrlar davomida ota-bobolarimizdan kelayotgan bu kabi fazilatlar o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Isbot uchun quyidagi naqllarni keltiramiz:

Yaxshilarga yondashtir, Yomonlardan adashtir.

Yaxshilik qil, suvga sol, Baliq bilur, baliq bilmasa, Xoliq bilur.

Xulosa qilib aytganda, maqol hamda naqllar bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o‘sha xalqning barcha o‘y - fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe’l - atvori va e’tiqodi aks etadi. Har bir millat o‘ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning naql va maqollariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Hatto naqllardagi mavzular o‘xshash bo‘lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqol hamda naqllardagi milliy bo‘yoqdorlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent. Sharq, 1999 .
2. M. Avzalov. Ertak janri // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, Toshkent. 1998,4-son, 16-15-bet
3. M.M. Jo‘rayeva. Fransuz vao‘zbek ertaklarida modallik kategoriyalarining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Diss … filol… fan… dok… . Toshkent. 2017.
4. O.Eshmurodova. Ertak va masal janridagi asarlarni o‘qitishda pedagogik texnologilardan foydalanish. Toshkent, 2014
5. O‘rayeva D. Ertak istilohi haqida. – 72 b.
6. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi 1990, B. 191
7. Fransuzcha-o‘zbekcha-ruscha proverbial frazeologik lug‘at. 2012
8. Stylistique du français moderne. 2004. Z.Abdushukurova
9. ziyonet.com